

O'smirlik Va O'spirinlik Davining Psixologik Jihatdan O'ziga Xos Xususiyatlari

Mamataliyeva Durdona Hamdamovna¹, Ismatillayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi²

Annotatsiya: O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ularni 5-8 sinf o'quvchilari tashkil qiladi. O'spirinlik davri esa 15-18 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab olib, 8-10 sinf o'quvchilarini tashkil qiladi. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan tavsiflanadi. O'spirinlik davrida o'quv faoliyatining murakkablashganligi tufayli o'quvchilar oldida kelgusida kim bo'lish, qanday faoliyat turi bilan shug'ullanish kerak degan tashvish paydo bo'la boshlaydi. Ushbu maqolada o'smirlar va o'spirinlar davri psixologiyasi, fiziologiyasi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'smirlik, o'spirinlik, qarama-qarshilik, psixologik, fiziologik, tashqi qiyofa, xulq-atvor, ehtiyoj, nazorat.

O'smirlik davri – aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinfdan boshlanadi. “Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas” – ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu davr qarama – qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar “krisislar”, “tanazzullar” davri ham deb ataydilar. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jismoniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakillanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro'y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan o'zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar sezgilar va jinsiy hayotga talluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bular ta'sirida o'smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan muomalasi, jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga munosabati tez o'zgarib boradi. Ba'zan ijtimoiy masalalar to'g'risida noto'g'ri tassavvur va yanglish fikrlar hosil bo'lishi tufayli u muayyan tartib qoidalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Bola kamolotining bu davrini ko'pincha “qiyin”, “murakkab”, “muhim” davr deyiladi. O'smirlik davri o'zining taqlidchanligi, muhim nazarning shakillanmagani, hissiyotga beriluvchanligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Bu o'smirlarga xos xususiyatdir. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor ta'lab qilinadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar biologik, fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Butun a'zolarida keskin fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, xujayra va tuzilmalarining qaytadan shakillana boshlashidir. O'smirida psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy xususiyatida ham burilishlar sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'uladi. Bular, avvalo, ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va uslublari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Ana shunga o'xshash o'zgarishlar o'smir ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. U tajangroq, ba'zida huda-behudaga injiqlik qiladigan, serzarda gap ko'tarmas bo'lib qoladi. Unda o'pka, yurak, jigar, taloq, buyrak hajmlari kattalashadi. Bundan tashqari gavda tuzilishi ham o'zgaradi. Kattalarning o'smir yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit bu- mehnat bilan shug'ullanishidir. Agar kichik

¹ Termiz Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi 3- bosqich talabasi

² Termiz Davlat Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi 3- bosqich talabasi



yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatyotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rinlariga ham ishlay olishdan qoniqadilar.

O'smir organizida ro'y beradigan o'zgarishlar bola rivojlanishining ayni shu davrida biologik, fiziologik yetukligi borasida amalga oshadi. Fiziologik rivojlanish va jinsiy balog'atga yetishishi jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. O'smirlik yoshida qizlar va o'g'il bolalarning jismoniy qiyofasida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bu davrning boshlanishida qizlar o'g'il bolalarga nisbatan tezroq rivojlanadilar. Bu narsa qiz bolalarning ertaroq jinsiy balog'atga yetishishiga bog'liqdir. 7-8 sinflarda o'g'il bolalar tez o'sib, qiz bolalar bilan tenglashib oladilar. Qizlar 14 yoshda, o'g'il bolalar 15 yoshda balog'atga yetdilar. O'smirlik davrida o'g'il bolalarning bo'yi 25-30 sm, qiz bolalarniki 18-20 sm o'sadi. O'smirlik yoshining 2-davrida yuz suyaklari, ayniqsa uning o'rta qismi (burun, yuqori jag', yonoq) juda tez shakillana boshlaydi. Og'iz bo'shlig'i va xalqumo'zgaradi, bo'g'izda ham o'zgarish ro'y beradi: ovoz paylari uzayadi va ko'payadi. Natijada o'g'il bolalarning ovozi yo'g'onva past bo'lib qoladi. Qiz bolalarning o'g'il bolalarnikidek keskin o'zgaraydi, shunday bo'lsa ham qizchalarga xos o'tkir, jaranglagan ovozning nisbatan past kattalarga xos ovoz bilan almashinishdir.

O'spirinlik davri – o'spirinlik davrida o'quv faoliyatining murakkablashishi, ularning yangi jamoadatutgan o'rni ulardan ko'p narsa talab qiladi. O'spirinlarning maktab hayotida, oilada tutgan mavqeyi o'zgaradi, ya'ni o'zidan kichikanalarga nisbatan boshliq, tashkiotchi va tarbiyachi bo'lish talab qilinadi. Ular 18 yoshda kattalikka erishadi. Organizmning o'sishi to'xtaydi, "tinch" davr boshlanadi. Organizm tarkib topishi va organizm to'qimalarning takomillashishi nihoyasiga yetadi. Bu davrda ularning nerv sistemasi rivojlanadi va katta kishilarning miya po'stlog'I xususiyatiga asta-sekin yaqinlashadi. Bosh miya po'stlog'ining atroflarida nerv bog'lanishlarning soni ko'payadi. O'qish va mehnat qilish natijasida bosh miya yarim sharlarida analitik va intetik faoliyat rivojlanadi. Bu xolat tashqi ta'sirni aniq ajrata oladigan xususiyatni o'stiradi. Farq qilish harakteridagi tormozlanish vujudga keltiriladi. Bu davrga kelib o'qish mashg'ulotlari ancha murakkablashadi: bir qator yangi fanlar o'qitila boshlaydi, dars mazmuni kengayadi, murakkablashadi, bilim, hayot, amaliy ishlar olib boriladi, o'quv ishlab chiqarish jamoasida bo'ladi. Bu davrda nazorat bilimlar, amaliy ishlar bilan qo'shib o'rganiladi. O'quvchilardan materialni tushunish va uni hayotga tadbiq eta bilish talab etiladi. Bu o'quvchilar nazriyaga juda ham berilib, amaliy ishlarga ahamiyat bermaydilar. Ular ko'p fikr yuritadi, lekin o'z fikrlarini amalda sinab ko'rishdan qochadi. Ularning fikrlashida umumlashtirish, abstraksiya qilish ustun turadi. Shunga qaramay konkretlashtirish xususiyati past darajada bo'ladi.

Katta maktab yoshida shaxsning ma'naviy kuchlari intensive rivojlanadi, uning ma'naviy qiyofasi tarkib topadi, harakter hislatlari aniq bo'ladi, dunyoqarashi shakillanadi. Katta maktab yoshida shaxsning rivojlanishiga uning maktabda, oilada, ijtimoiy munosabatlar sistemasida tutayotgan mavqeining o'zgarishi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchisi bo'lgan o'smirning faoliyati asosan o'qish faoliyatidan iborat bo'lib u maktab doirasi bilan cheklangandir. O'smirning ijtimoiy faoliyati ham odatda maktab ichida ro'y beradi. Katta yoshdagi o'quvchi esa boshqacharoq bo'ladi. Katta maktab yoshidagi o'quvchi o'smirdan farqli o'laroq o'zidagi oddiy, sezilarli ravishda namoyon bo'ladigan shaxsiy sifatlargina emas, balki ko'p qirralimunosabatlarni harakterlovchi ancha murakkab sifatlarni anglashga qodirdir. O'smir o'zicha "Men maktab jamoasining a'zosi" sifatida qandaymandeb savol beradi. Katta maktab yoshidagi o'quvchi esa o'ziga "men kelgusi mustaqil hayot uchun qandayman ?, Men yaroqlimanmi?" – deb savol beradi.

Talabalik davri o'smirlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo'lib 17-22 yoshni o'z ichiga oladi va o'zining qator betakror xususiyatlari va qarama- qarshiliklari bilan harakterlanadi. Shu boisdan o'spirinlik davri shaxsning ijtimoiy va kasbiy mavqeini anglashdan boshlanadi. Mazkur pallada o'spirin o'zig xos ruxiy inqiroz tanglikni boshidan kechiradi, jumladan kattalarning har- xil ko'rinishdagi (unga yoqish yoki yoqmasligidan qat'iy nazar) rollarni tez suratlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jixatlariga ko'nika boshlaydi katta odamlarning turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'liq ichki qarama – qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Yosh fiziologiyasi va psixologiyasi fanlarida to'plangan materiallar tahlilidan ko'rinadiki, talaba 17-19 yoshda ham o'z xulqi va bilish faoliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi



va shunga ko'ra xulq motivlarining asoslanmaganligi, uzoqni ko'ra olmaslik, extiyotsizlik kabi holatlar ro'y beradi.

Xulosa: O'qituvchi bilan o'quvchi, o'qituvchi bilan talabaning hamkorligidagi faoliyat negzida tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish muammosi yotadi. Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim tarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun talabalar bilan o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz ta'sir ko'rsatish hukm surishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G'oziyev. Yosh davrlar psixologiyasi. Toshkent – 2010.
2. G'oziyev E.G'- Umumiy psixologiya . Toshkent – 2010.
3. Davletshin.M.G.- Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T -2004.
4. G'oziyev E.G'- Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). T- 2002.
5. Karimova.V.M, Akromova.F.A- Psixologiya. T – 2000.

